

Date: 3rdDecember-2024

O'QITUVCHI IMEDJINING TALABA RUHIYATIGA TA'SIRI

Sharapova Dildora Baxtiyorovna

International school of finance technology and science instituti katta o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Djamolxo'jayeva Madinaxon Alisher qizi

International school of finance technology and science institute Pedagogika, 1-kurs
24-PD-01 guruhi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola o'qituvchi imidjining talaba ruhiyatiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, muloqot uslubi va kasbiy kompetensiyalari, talabalar bilim olish jarayoniga va ularning psixologik holatiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Ushbu omillar talabalarning motivatsion sohasiga, o'qishga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi bo'yicha ilmiy dalillar keltirilib, keltirilgan xulosalar asosida o'qituvchi imidjni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: imidj, nutq madaniyati, muloqot uslubi, motivatsiya, qiziqish, notiqlik san'ati.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению влиянию образа учителя на психику учащихся, а также тому, как внешний вид учителя, культура речи, стиль общения и профессиональные компетенции влияют на процесс обучения и их психологическое состояние. Представлены научные данные о том, оказывают ли эти факторы положительное или отрицательное влияние на мотивационное поле студентов, интерес к учебе и социальную адаптацию, а также даны практические рекомендации по формированию имиджа учителя на основе изложенных выводов.

Ключевые слова: имидж, культура речи, стиль общения, мотивация, интерес, публичное выступление.

Annotation. This article is devoted to the study of the influence of the teacher's image on the psyche of students, as well as how the teacher's appearance, speech culture, communication style and professional competencies affect the learning process and their psychological state. Scientific data are presented on whether these factors have a positive or negative impact on the motivational field of students, interest in learning and social adaptation, and practical recommendations are given on the formation of the image of a teacher based on the findings presented.

Key words: image, speech culture, communication style, motivation, interest, public speaking.

Kirish. Hozirgi zamонавиј та'lim тизимида о'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalar uchun motivatsiya, psixologik quvvat va ijtimoiy namuna beruvchi shaxs bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi imidji haqida fikr yuritar ekanmiz, ko'pchiligidiz bu soha vakilining yuksak fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan bilimdonligi, ilmiy va ijodiy dunyoqarashining kengligi, yoshlarga, atrofidagi insonlarga

Date: 3rd December-2024

nisbatan muhabbati, pedagogik jihatdan o’z-o’zini rivojlantirishga intilishning mavjudligi, shaxsiga va boshqalarga nisbatan talabchanligi, qat’iyatliliqi, umumiy pedagogik madaniyati va etikasi yuqori bo’lgan hamda yuqori kasb mahorat egasi bo’lishi lozim.

Darhaqiqat, o’qituvchi o’zini «namoyon etish» vazifasini o’zi to’g’risidagi ilk taassurot shakllantirayotgan paytda amalga oshirishi maqsadga muvofiq. «Noverbal» deb nomlanadigan imidj o’qituvchi imo-ishoralari, yuz-qarashlari, savlatini nazarda tutadigan yoqimli sifatlarini qay darajada ishlata olishi bilan bog’liq. Yaxshi sifatlar turli vaziyatlarga tezkor o’rganishga, odamlar bilan kommunikativ aloqalar o’rnatishga yordam beradi. Pedagog imidjining muhim tomoni – «verbal» imidj, ya’ni uning so’z boyligidir. Nutq mahsuldarligi uning egiluvchanligi, ta’sirchanligi va originalligi bilan ifodalanadi.

Qadimgi donishmandlarning aytishicha, notiqlik san’ati – bu so’z bilan ishontirish qobiliyatidir.

Asosiy qism. Imidjeologiya insonlarga yoqish san’ati va fani bo’lib, u ming yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. Imidjeologiya deb yuritiladigan ushbu yo’nalish har bir insonni yoqimli, jozibador bo’lish va boshqalarga xush kayfiyat ulashish, yaxshi ko’rinish va aql mutanosibligi orqali yorug’lik ulashishni o’rgatish bilan shug’ullanadi. Fanda insonlarga ta’sir ko’rsatishning ikki hil usuli mavjud bo’lib, birinchisi, ishontirish usuli bo’lsa, ikkinchisi yoqish usulidir. Ulardan qay biri ahamiyatliroq va ishonchliroq degan savolga har ikkisining ham inson hayotida muhim o’rni bor, deyish mumkin.

Ingliz tilidan «image» so’zining o’zbek tiliga tarjimasи «ko’rinish», «qiyofa», «siymo», «timsol» ma’nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqib, imidj qandaydir sintetik siymo bo’lib, aniq bir insonga bo’lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir. U o’zida yetarli darajada his-tuyg’uga bezalgan obyekt to’g’risidagi axborotni qamrab oladi va aniq ijtimoiy munosabat tasavvurini yuzaga keltiradi.

Amerika sotsiologi Ervin Gofmanning fikricha: Imidj – taassurotlarni boshqarish san’atidir. Shu o’rinda savol tug’iladi, taassurotlarni qanday qilib masofadan boshqarish mumkin? Bunday holatda boshqaruvchi qanday xususiyatlarga ega bo’lmog’i kerak? Unga ko’proq bilim kerakmi yoki tajriba muhim? Ushbu savollarni atroflicha o’rganish uchun imidjning qariyatlar omillarini o’rganish zarur. Imidjning qadriyat omiliga quyidagilar kiradi:

1. Shaxsni yuksaltiradigan omillar: ijobiy imidj tufayli shaxsning siyoshi, ma’naviy xislati namoyon bo’ladi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarzda gavdalanadi hamda uning individual o’ziga xosligi ko’rinadi.

2. Psixoterapevtik omillar: jozibador, iliq, tabassumli xususiyatga ega shaxs insonlar e’tibori va hurmatiga sazovar bo’lishi muqarrar, unga bu bioenergetik quvvat to’ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo’ladi. Bu toifadagi insonlarda o’z maqsadiga erishish sari optimist va ochiq hamda uning o’z-o’ziga ishonchi mavjuddir. Bunday insonlar ozroq psixofizik sarflar orqali hayotiy yutuqlarga erishish mumkin.

Imidj – bu nafaqat ko’rinish, balki nutq, muomala orqali namoyon bo’ladigan ta’lim-tarbiyaviy jihatlarni ham o’z ichiga qamrab oladi. Shulardan biri – shaxs o’zini


Date: 3rd December-2024

namoyon qilishidir. Mazkur holatda tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish muhim sifat sanaladi.

O'qituvchining imidji — uning tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, muloqot uslubi va kasbiy kompetensiyalari talaba ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada o'qituvchi imidjining talaba ruhiyatiga ta'sirini o'rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish hamda o'qituvchining samimiyligi, mehribon va professional obrazini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. O'qituvchi imidji talabalarning darsga bo'lган munosabati va psixologik holatini belgilovchi muhim omillardandir. Tashqi ko'rinish (kiyinsh uslubi, gigiyena), ovoz ohangi va nutq madaniyati talabada ilk taassurotni shakllantiradi. O'qituvchi o'zini yaxshi namoyon eta olsa, talabalar darsga qiziqish bilan qatnashadi. Ammo salbiy taassurot, masalan, muloqotdagi qo'pollik yoki professional bo'lman xatti-harakatlar, talabalar ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin.

O'qituvchi imidji – bu, ijtimoiy qiyofani yaratish yoki o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat, ya'ni "o'qituvchi va pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yaratilgan ramz"dir [3]. Tadqiqotchilarning fikricha, professional jamiyat bilan samarali o'zaro munosabatlar va pedagogik jarayonning samaradorligi ijobiy o'zini o'zi anglaydigan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

“Men” kontseptsiyasi - bu mutaxassisning o'z kasbiy ahamiyatlilik xususiyatlarini tushunish natijasi bo'lган professional shaxsning tuzilishidir. O'z-o'zini anglashda “Men” konsepsiyasining tuzilishi uchta komponentni o'z ichiga oladi (1-rasm) [4]:



1-rasm. “Men” konsepsiyasining tuzilishi.

O'qituvchining “Men” kontseptsiyasi – bu, o'qituvchining professional kasbiy faoliyati sifatidagi nisbatan barqaror va ongli g'oyalar tizimi bo'lib, pedagog u orqali pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlarini quradi va ta'limda sodir bo'ladigan hamma narsani baholaydi. Ijobiy menlikni anglagan o'qituvchi o'z kasbidan mammun, shuning uchun o'qituvchilik unga zavq bag'ishlaydi, shuningdek, bunday o'qituvchi o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga tayyordir.

Date: 3rd December-2024

R.Byorns ijobiy "Men"ni mavjudligi o'qituvchilik faoliyatining samaradorligini oshiradi va bu sifatlarni o'qituvchining quyidagi shaxsiy fazilatlarida deb belgilaydi [9]:

- ✓ maksimal moslashuvchanlikka intilish;
- ✓ empatiya qobiliyati, o'quvchilarning ehtiyojlariga sezgirlik;
- ✓ o'qitishga shaxsiy taassurot qo'shish qobiliyati;
- ✓ o'quvchining o'z-o'zini anglashi uchun ijobiy mustahkamlashni yaratishga e'tibor qaratish;
- ✓ talabalar bilan norasmiy muloqot uslubini bilish;
- ✓ darsda yozma aloqalardan ko'ra og'zaki aloqalarni afzal ko'rish;
- ✓ hissiy muvozanat, o'ziga ishonch, quvnoqlik.

Ijobiy o'zini o'zi anglaydigan o'qituvchi ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilari, ayniqsa, talabalar orasida yuqori baholanadi.

Tahlil va misollar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, samimiyligi va qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi talabalarning o'qish jarayonida o'zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi. Masalan, yapon tadqiqotchisi Hiroshi Yoshida tomonidan o'tkazilgan izlanishlar natijasida talaba ruhiyati va o'qituvchi nutqi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. O'z navbatida, talabalar bilan tengdoshlardek muloqot qiluvchi o'qituvchilar o'quvchilar motivatsiyasini oshirishga muvaffaq bo'lganlar.

Pedagoglarda ijobiy imidjni shakllantirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berib o'tishimiz mumkin:

1. Tashqi ko'rinishga e'tibor berish: O'qituvchi professional ko'rinishda bo'lishi talabalar e'tiborini jalb qiladi.
2. Nutq madaniyatini rivojlantirish: Ravon va tushunarli nutq talaba ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.
3. Muloqotda samimiyat: O'qituvchi talabalar muammolarini tinglab, ularga tavsiya berishi, ularning ishonchini qozonishiga olib keladi.
4. Qat'iyat va adolat: O'qituvchi o'z prinsiplari va qoidalariga sodiq qolgan holda adolatli bo'lsa, talabalarning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kislash joiz-ki, o'qituvchining imidji ta'lif jarayonining muhim qismidir. Tashqi ko'rinishdan tortib, nutq madaniyatigacha bo'lgan omillar talaba ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchilar nafaqat bilimli, balki ruhiyatshunos, muloqotda ochiq va mehribon bo'lishlari zarur. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar amaliyotda qo'llansa, ta'lif jarayonining sifati oshishi va talabalarning psixologik qulayligi yaxshilanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matkarimova, N. (2023). Zamonaviy pedagog imidjiga qo 'yiladigan talablar. ta'lif va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 202-207.
2. Nozigul, R. (2023). Malakali o 'qituvchi imidjini shakllantirishning zamonaviy yo'llari. Innovations in Technology and Science Education, 2(13), 96-103.
3. Большая Б.Б., Петрова С.С. Имидж педагога как составляющая профессиональной компетентности // Мир педагогики и психологии:

Date: 3rd December-2024

международный научно-практический журнал. 2023. № 04 (81). Режим доступа:
<https://scipress.ru/pedagogy/articles/imidzh-pedagoga-kak-sostavlyayushhaya-professionalnoj-kompetentnosti.html>

4. Глухих С. И. Имидж современного педагога как условие формирования профессиональной компетентности // Народное образование. 2012. №2. С. 112-116. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/imidzh-sovremenogo-pedagoga-kak-uslovie-formirovaniya-professionalnoy-kompetentnosti>
5. Захарова С. Н. Имидж педагога как составляющая профессиональной компетентности / С. Н. Захарова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2016. № 5.1 (109.1). С. 16-18. Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/109/26316/>
6. Зубова В. А. Изучение сущности и трактовок понятия имиджа / В. А. Зубова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2019. № 23 (261). С. 207-209. Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/261/60173/>
7. Корнеенко Т.О. Структура коммуникативной компетентности учителя // Мир педагогики и психологии: международный научно-практический журнал. 2022. № 05 (70). С. 23-28. Режим доступа: <https://scipress.ru/pedagogy/articles/korneenko-to-struktura-kommunikativnoj-kompetentnosti-uchitelya.html>
8. Нестерова А.А. Образ учителя: от народной педагогики до профессионального стандарта // Мир педагогики и психологии: международный научно-практический журнал. 2022. № 10 (75). С. 12-17. Режим доступа: <https://scipress.ru/pedagogy/articles/obraz-uchitelya-ot-narodnoj-pedagogiki-do-professionalnogo-standarta.html>
9. Разумная С.С. Роль личности преподавателя в профессиональном образовании // Мир педагогики и психологии: международный научно-практический журнал. 2022. № 11 (76). С. 121-126. Режим доступа: <https://scipress.ru/pedagogy/articles/rol-lichnosti-prepodavatelya-v-professionalnom-obrazovanii.html>
10. Ромашина С.Я. Культура дидактического коммуникативного воздействия педагога: учебное пособие для студентов педагогических вузов, М.: УРАО, 2005. 172 с.